

**PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY  
MARKAZI TINGLOVCHILARINING KOMMUNIKATIV  
KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM  
TEKNOLOGIYALARINING ROLI**

**Mirzayeva Xolida Normurodovna,**

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
o'qituvchisi

[mirzayevaxolida@gmail.com](mailto:mirzayevaxolida@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ilmiy maqolada pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tinglovchilarining kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirishda ta'lim texnologiyalarning o'rnini ko'rib chiqilgan. pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi tinglovchilarining kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish ta'lim texnologiyalar tizimni tashkil etuvchi pedagogik tartiblar, operatsiyalar, metodlarning ketma-ketligi, ta'lim amaliyotida amalga oshirilishi kafolatli bo'lgan ta'lim maqsadlariga erishishga olib keladi va tinglovchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'maklashadi, ya'ni pedagogik ta'lim texnologiya aniq maqsadlarga erishish uchun maqsadli harakatlar tizimi bo'lib hisoblanadi.

**Key words:** students of the National Center for Training Teachers in New Methods, educational technologies, communicative competence, organizational-pedagogical, forms of education, communicative task

**THE ROLE OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING  
THE COMMUNICATIVE COMPETENCIES OF LISTENERS OF THE  
NATIONAL CENTER FOR TEACHING EDUCATORS TO NEW  
METHODOLOGIES**

**Mirzayeva Holida Normurodovna,**

Lecturer of National Center for teaching educators in new methodologies of  
Navoi region

**Abstract:** The scientific article examines the role of educational technologies in improving the communicative competence of the students of the National Center for Teaching Pedagogues to New Methods. improving the communicative competence of students of the National Center for Training Pedagogues in new methods leads to the achievement of educational goals that are guaranteed to be implemented in the educational practice of pedagogical procedures, operations, methods that make up the system of educational technologies, and to develop the competencies of students helps, that is, pedagogical education technology is a system of purposeful actions to achieve specific goals.

**Keywords:** public education workers, educational technologies, communicative competence, organizational-pedagogical, forms of education, communicative task.

**РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В  
СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ КОММУНИКАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ  
СЛУШАТЕЛЕЙ НАЦИОНАЛЬНОГО ЦЕНТРА ОБУЧЕНИЯ  
ПЕДАГОГОВ НОВЫМ МЕТОДИКАМ**

**Мирзаева Холида Нормуродовна,**

Преподаватель, Навоийский областной Национальный центр обучения педагогов новым методикам

**Аннотация:** В научной статье рассматривается роль образовательных технологий в повышении коммуникативной компетентности студентов Национального центра обучения педагогов новым методам. повышение коммуникативной компетентности студентов Национального центра подготовки педагогов новыми методами приводит к достижению образовательных целей, гарантированно реализуемых в образовательной практике педагогическими процедурами, операциями, методами, составляющими систему образовательных технологий, и Развитию компетенций обучающихся помогает, то есть технология педагогического образования представляет собой систему целенаправленных действий по достижению конкретных целей.

**Ключевые слова:** Ключевые слова: студенты Национального центра подготовки учителей новой методики, образовательные технологии, коммуникативная компетентность, организационно-педагогические, формы обучения, коммуникативная задача.

**Kirish**

Dunyoning etakchi xalq ta'limi muassasalari ta'lim tizimini modernizatsiyalash, tinglovchilarning kommunikativ kompetensiyasini baholash, davlat talablariga muvofiqlashtirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim standartlari, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan innovatsion g'oyalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalq ta'limning mazmuni, metodlari, shakllari va o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirish, xizmat va kundalik faoliyat sohasi bilan o'zaro bog'liqlik asosida o'quv jarayonini tashkil etish, amaliyotga yo'naltirish, ijtimoiy, kasbiy, ijodiy muammolarni tadqiq etadigan vazifalar va muammoli vaziyatlarni hal qilishda monitoringini olib borish bo'yicha tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Shu qatorda ilmiy tadqiqot ishlari davomida tinglovchilarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishda quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar mavjudligini aniqladik:

tinglovchilarning kommunikativ kompetensiyasiga tayyorgarligini boshqarish;

tinglovchilarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan o'quv kurslarini tashkil qilish;

tinglovchiga o'zaro bog'liq bo'lgan, uch bosqichini o'z ichiga olgan kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishning algoritmini tayyorlash, kompetentlikni shakllantirish jarayonining asosiy va yakuniy bohqichlarini ishlab chiqish va undan foydalanish;

tinglovchining kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida pedagogik texnologiyalardan, didaktik vositalar majmuasidan foydalanish;

ularning kasbiy kompetensiyasi darajalarini baholash uchun mezonlar tizimini ishlab chiqish;

mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini baholash mezonlari bu - motivatsion-ehtiyojli, bilimli, faoliyatli-tashkiliy, refleksiv va shaxsning kommunikativ sifatleri tizimini ishlab chiqishdan iborat.

### **Tahlillar va natijalar**

Bizning nazarimizda, bo'lajak muhandislarni kompetensiyasini shakllantirish ko'p bosqichli bo'lishi kerak. Ushbu tasdiqqa muvofiq, o'rganilayotgan kompetentlikni shakllantirishda ketma-ketlik talab qilinadi, u uchta o'zaro bog'liq bosqichni o'z ichiga qamrab oladi: tayyorlov, asosiy va yakuniy. Fikrimizcha, qo'yilgan vazifalarni aniqlashtirish va maqbul hal etish uchun kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayonini bosqichlarga ajratish zarur [1].

Birinch, tayyorlov (bilimli) bosqichi kommunikativ kommunikativ kompetentlikka ehtiyojni shakllanishiga bog'liq bo'lgan kasbiy muloqotni amalga oshirishda qadriyatlarning munosabati o'zini o'zi anglashi.

Ikkinchi, asosiy (faoliyat) bosqichda diqqat kommunikativ vazifalarni hal etishga qaratilgan bilim, ko'nikmalarni egallash va o'zlashtirishga qaratiladi.

Uchinchi va yakuniy (refleksiv) bosqichi bo'lajak muhandislarning kasbiy vaziyatlarni hal etishdagi ijodiy va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq.

Ta'lim texnologiyalarining faol o'qitish usullarini birinchilardan bo'lib,

imitatsiyali va imitatsiyasizga ajratadi. Birinchisiga, u faoliyatga imitatsiya qilishga qurilgan shakllarni kiritadi ya'ni, o'yin usullarini: ish o'yinlari, loyihalash o'yinlari va boshqalarni; o'yinsiz usullarga: aniq vaziyatlarni tahlil qilish, vaziyatli masalalarni echish va boshqalarni, ikkinchisiga esa, u, ma'ruzalarda ta'lim ishlarini faollashtirishning barcha usullarini kiritadi.

Kommunikativ kompetensiya faol guruh usullarini uchta blokka birlashtirish mumkinligini qayd etadi: munozara: guruh muhokamasi, vaziyat tahlili va boshqalar; o'yinli: didaktik, ijodiy, ishbilarmonlik, rolli o'yinlar; senzitiv trening kabilar.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyaning quyidagi ta'rifini taklif etamiz: pedagogik texnologiya-didaktik jarayonning ilmiy asoslangan loyihasini amalga oshiruvchi va natijaning unumdorligi, samaradorligi, ishonchliligi va kafolatining yuqori darajasiga ega bo'lgan pedagogik faoliyatdir.

Didaktik tizimni tashkil etuvchi pedagogik tartiblar, operatsiyalar, metodlarning ketma-ketligi, ta'lim amaliyotida amalga oshirilishi kafolatli bo'lgan o'quv maqsadlariga erishishga olib keladi va talabaning shaxsini rivojlantirishga ko'maklashadi, ya'ni pedagogik texnologiya aniq maqsadlarga erishish uchun maqsadli harakatlar tizimi bo'lib hisoblanadi [2].

Tinglovchilarning kompetensiyasini takomillashtirishning konseptuallilik, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik, optimallik, faoliyatli kabi yondashuvlarga asoslanishni talab etadigan innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash samaralidir. Ta'lim texnologiyalari hamda faol va interfaol metodlar talabalarda o'z-o'zini to'g'ri baholash va o'z nuqtai nazarini yanada namoyon qilish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadi. Shuningdek, tinglovchilarning amaliy mashqlar ustida ishlashini tashkil etish bir nechta bosqichlarda amalga oshadi: reproduktiv (kasbga oid axborot bilan ishlash); produktiv (muloqotni amalga oshira olish); kreativ (muammoli vaziyatlarni hal qila bilish).

Biz xalq ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishi tinglovchilarini mustaqil ish jarayonida didaktik kompetensiyasini interfaol metodlar asosida takomillashtirish

metodikasi bo'yicha, "Chet tili" fanidan mustaqil ish jarayonini tashkil etishga asosiy e'tiborni qaratdik. Bunda axborot-loyihaviy texnologiya, dasturiy didaktik majmualarning imkoniyatlaridan foydalandik.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tinglovchining shakllanishiga yordam beruvchi muhim pedagogik va didaktik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkinligiga ishonch hosil qilindi:

Moddiy-texnik shart-sharoitlar (o'quv binolari, auditoriyalar, lingafon xonalari, laboratoriya jihozlari), axborot texnologiyalari (radio, televidenie, kompyuter, laboratoriya asbob-uskunalar (audio, video, multimediya), videoproektor, interaktiv va elektron doskalar, texnik vositalar majmuining mavjudligi).

O'quv-metodik meyoriy hujjatlar (Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, namunaviy o'quv reja va o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rgazmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar).

Ilmiy-pedagogik tinglovchilarning salohiyati (professor, dotsent, katta o'qituvchi, assistent, rahbar va texnik tinglovchilar).

Professor-o'qituvchilar, rahbarlar hamda talabalar, shuningdek, tinglovchilarning o'zaro munosabatlari mazmuni, yo'nalishi, maqsadlarining birligi ya'ni ijtimoiy va o'quv-texnologik muhit.

O'quv-amaliy va tashkiliy faoliyatning uzluksiz, izchil, tizimli yo'lga qo'yilganligi.

Yuqorida keltirib o'tilgan pedagogik shart-sharoitlardan tashqari mustaqil faoliyat strategiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda er shari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtning o'zida ta'lim har tomonlama yuksalishi, unda komillilik, etuklilik sifatlarining rivojlanishi va malakali mutaxassis bo'lishi uchun kerak bo'ladigan jamiki jihatlarni paydo bo'lishi va shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Aniq qo'yilgan didaktik maqsad; amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan vositalar va albatta, maqsadga erishish uchun bu vositalardan qanday

foydalanishning aniq qonun-qoidalarini topish zarur deb hisoblaymiz [4].

Hozirgi kunda ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiyalar doirasiga o'tkazish degani bu, amaliyotida pedagogik jarayonni ixtiyoriy tuzishni va uni amalga oshirishni hal qiluvchi o'zgartirishlarga olib kelinishini bildiradi.

### **Xulosa**

Hozirgi kunda xalq ta'lim muassasasi tinglovchilarining auditoriyada bilim olishini yo'lga qo'yish natijasida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish va uning sifatini yuqori darajaga ko'tarish pedagog-o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, uning ta'lim berish jarayonini to'g'ri tashkil eta olishiga, pedagogik usullarni to'g'ri tanlay bilishiga, darsni to'g'ri rejalashtirishiga bevosita bog'liqdir. Agar talaba uchun barcha etarli shart-sharoitlar, ya'ni o'quv materiallari, kompyuter texnikasi, lug'atlar, avtomatlashtirilgan dasturlar kabilar bo'lsa-yu, undan foydalanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan, ta'lim jarayoni to'g'ri tashkil etilmagan bo'lsa, yuqori natijaga erishib bo'lmaydi.

Texnika xalq ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'qitish jarayonida ma'ruza orqali o'qitish texnologiyasining variantlari asosida darsni tashkil qilishga harakat qildik. Talabalarga oldindan ma'ruza matni taqdim etildi, bu erda faqatgina pedagogning faoliyatini ko'rsatdik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Мирзаева Холида Нормуродовна. (2023). Халқ таълими ходимларининг коммуникатив компетенцияларини такомиллаштириш моҳияти . *Journal of Integrated Education and Research*, 7(1), 50–52. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/1217>
2. Mirzaeva M.N. Formation of the concept and technology of intercultural competition among students in universities. *International scientific journal "Scientific Horizons"* No.5 / 2018- P. 81-84p
3. Mirzaeva M.N. Technology forming professional competence of students of the technical university in the lessons of foreign languages // *International scientific journal "Scientific Horizon"* No. 8/2019 -27-31s.
4. Mirzaeva Kholida Normurodovna. (2023). Improving Communicative Competence Of Public Education Staff. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 22, 6–8. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/4228>